



INVESTITSIYA JARAYONI MODELLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

DSc, prof. Tuxliyev Bozor Karimovich
Texnologiya, Menejment va Kommunikatsiya instituti
ORCID 0000-0002-4328-3261
Tukhlievb@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada «investitsiya jarayonlari» tushunchasi haqida fikr yuritiladi. «Investitsiya jarayonlari» tushunchasiga shu sohadagi yetakchi olimlarning ta'riflari va fikr mulohazalari keltirilgan. Bu yerda investitsiya jarayonlari bilan investitsiya faoliyati o'rtasidagi farq ochib berilgan. Investitsiya jarayonlarining asosiy tarkibiy qismlari va ularning mazmuni ifoda etilgan. Shuningdek, maqolada jahon amaliyotiga ko'ra, davlatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasiga asosan investitsiya jarayonlarining bir nechta modellari tahlil qilingan. Yuqoridagi tahlillar asosida tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya jarayonlari, investitsiya faoliyati, investitsiya jarayonlarining asosiy tarkibiy qismlari, investitsiya jarayonlarining modellari, proteksionistik investitsiya jarayonlar modeli, ochiq dunyo bozori modeli, chetdan jalb etish modeli, rejali-taqsimot modeli, aralash iqtisodiyot.

МОДЕЛИ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЦЕССА И ИХ РОЛЬ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

DSc, проф. Тухлиев Бозор Каримович
Технологии, менеджмент и коммуникации институт

Аннотация. В статье рассматривается понятие «инвестиционные процессы». Даны определения и мнения ведущих ученых в этой области понятию «инвестиционные процессы». Вот в чем разница между инвестиционными процессами и инвестиционной деятельностью. Выражены основные составляющие инвестиционных процессов и их содержание. Также в статье анализируются несколько моделей инвестиционных процессов на основе опыта экономического развития стран согласно мировой практике. На основе приведенного анализа сделаны соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: инвестиционные процессы, инвестиционная деятельность, основные компоненты инвестиционных процессов, модели инвестиционных процессов, протекционистская модель инвестиционного процесса, модель открытого мирового рынка, модель внешнего участия, модель планового распределения, смешанная экономика.

MODELS OF THE INVESTMENT PROCESS AND THEIR ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT

DSc, prof. Tuxliyev Bozor Karimovich
Institute of Technology, Management and Communication

Abstract. *The article examines the concept of "investment processes". Definitions and opinions of leading scientists in this field are given to the concept of "investment processes". This is the difference between investment processes and investment activities. The main components of investment processes and their content are expressed. The article also analyzes several models of investment processes based on the experience of economic development of countries in accordance with world practice. Based on the analysis provided, appropriate conclusions and proposals are made.*

Keywords: *investment processes, investment activity, main components of investment processes, investment process models, protectionist model of the investment process, open world market model, external participation model, planned distribution model, mixed economy.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan: "investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:" (ҚОНУН, 2019)

Investitsiyalar nazariyasida «investitsiyalar» singari «investitsiya jarayonlari» tushunchasi ham aniq bir ta'rifga ega emas. Ayrim mualliflar investitsiya jarayonlarini tor ma'noda baholab, investitsiya bozorlarida amalga oshiriladigan investitsiya kelishuvlariga asosiy e'tiborlarini qaratadi. Aslida, investitsiya jarayonlari kelishuvlar bilan tugamaydi, balki aksincha, iqtisodiyotning moddiy sohasida daromadlar yaratish va taqsimlash bilan davom etib, u bir nechta bosqichlardan iborat bo'ladi (Tuxliyev, 2023).

2023 yilda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 352,1 trln. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, 2022 yilga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi

So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2019 yilda 138,1 % ga etgan, 2020 yilda turg'un holatda bo'lgan – 95,6 % ni tashkil etgan, 2021 yilda ko'payib – 102,9 % kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o'sish tendensiyasiga ega bo'lib – 122,1 % ni tashkil etdi.

2023 yilda jami investisiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investisiyalarning ulushi, 2022 yilga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 12,7 % ni yoki 44,8 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 307,3 trln. so'm yoki jami investisiyalarning 87,3 % investisiyalari o'zlashtirilib, 2022 yilga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.

2023 yilda asosiy kapitalga investisiyalarning 66,4 % i yoki 233,8 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 33,6 % yoki 118,3 trln. so'm moliyalashtirildi. 2023 yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha investisiya statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha 3 701 ta yirik korxonalar va 4 409 ta kichik biznes sub'ektlari tomonidan hisobotlar qabul qilindi.³⁷

³⁷ <https://stat.uz/uz/>

Adabiyotlar sharhi.

Investitsiyalar nazariyasida «investitsiyalar» singari «investitsiya jarayonlari» tushunchasi ham aniq bir ta'rifga ega emas. Ayrim mualliflar investitsiya jarayonlarini tor ma'noda baholab, investitsiya bozorlarida amalga oshiriladigan investitsiya kelishuvlariga asosiy e'tiborlarini qaratadi. Jumladan, Jdanovning (2001) fikricha investitsiya jarayoni kapitalning kelajakda harakatlanishi va joylanishi bosqichlarini loyihalashtirishni o'z ichiga oladi. Alohida olib borilgan iqtisodiy akt sifatida kapital joylashtirilgandan so'ng investitsiya jarayoni yakunlanadi.

Ivanovning (2002) fikricha «investitsiya jarayonlari – bu turli obyektlarda investitsiya resurslarini qo'yish, shakllantirish va ularni ketma-ket, bosqichma-bosqich transformatsiya qilishdan toki fikr va g'oyalarni oxirigacha amalga oshirish»dir. Muallif o'zining ushbu ta'rifida «fikr va g'oyalar» so'zlariga izoh berar ekan, aytadiki;

- investitsiya jarayoni muayyan investitsiya loyihalarida, jumladan, investitsiya portfelini shakllantirish; yangi texnika va texnologiyani yaratish;
- boshqaruv va tashkil etishni takomillashtirish;
- moddiy ishlab chiqarishga taalluqli obyektlarni qurish, texnik qayta qurollantirish, kengaytirish, qayta qurish, shuningdek nomoddiy ishlab chiqarishga taalluqli obyektlarni ta'mirlash va boshqalarda o'z ifodasini topadi.

Shuningdek, uning quyidagi fikr-mulohazasi ham diqqatga sazovor, ya'ni “investitsiya jarayonlari – bu turli tarmoqlarda investitsiya resurslarini qo'yish, shakllantirish va kapitalni ko'paytirish maqsadida takror ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining ko'p qirrali faoliyatidir.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, Uilyam Sharp va boshqa guruh mualliflar (2003) investitsiya jarayonlariga qimmatli qog'ozlar nuqtai-nazaridan yondashib, quyidagi fikrni olg'a suradilar: «investitsiya jarayonlari investorlarga qimmatli qog'ozlarga nisbatan qaror qabul qilish, investitsiyalashni amalga oshirish, uning hajmi va muddatini belgilash kabi yo'nalishlarda o'z aksini topadi.

Kiseleva, Borovikova va boshqa bir guruh mualliflarning (2005) fikricha investitsiya jarayoni – bu investitsiyalarning turli shakl va darajalardagi harakatlar majmuyidir.

Jamiyat iqtisodiyotining qaysi tipida bo'lishidan qat'i nazar investitsiya jarayonlarini amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarning bo'lishini taqozo etadi. Ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya jarayonlarini amalga oshirish qobiliyatidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning mavjudligi;
- investitsiya faoliyati obyektlari orasida investitsiya resurslarining harakatlanish mexanizmlarining yaratilganligi;
- investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun mamlakat o'z ichki manbalari hisobidan kompleks to'liq investitsiya resurslariga ega bo'lishi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tadqiqotning dialektik usuli, tizimli va jarayonli yondashuvlar tashkil etadi. Ishda ilmiy abstraksiya, sintez, guruhlash va taqqoslash, moliyaviy tahlil kabi tadqiqot usullaridan hamda rasmiy axborot bazasidan foydalanilgan.

Yuqorida bayon qilingan investitsiya jarayonlarini tahlil qilish va bu sohada yetakchi olimlarning qarashlarini guruhlash va ularga munosabat bildirilgan hamda ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya faoliyati qatnashchilari tarkibiga quyidagilar kiradi: investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, investitsiya obyektidan foydalanuvchilar, materiallar va jihozlar

yetkazib beruvchilar, xorijiy investorlar, davlat va xalqaro tashkilotlar, moliya va bank muassasalari, sug'urta kompaniyalari, investitsion fond va kompaniyalar.

Investorlar mulkchilik shakllariga qarab xususiy, davlat, xorijiy va qo'shma investitsiyali subyektlar bo'lishi mumkin. Jumladan, investitsiya jarayonlarida davlatning roli va ahamiyati mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan bir qancha omillar asosida aniqlanadi. Bunday omillardan asosiylari bo'lib mamlakatda muayyan davrda bozor munosabatlarining rivojlanish bosqichlari va iqtisodiy rivojlanish darajasi hisoblanadi.

Quyidagi besh bosqich investitsiya jarayonlarining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi:

1. Investitsiya siyosatini tanlash.
2. Qimmatli qog'ozlarni tahlil etish.
3. Qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish.
4. Qimmatli qog'ozlar portfelini ko'rib chiqish.
5. Qimmatli qog'ozlar portfeli samaradorligini baholash»(Шарп, 2003).

1. Investitsiya siyosatini tanlash bosqichida, investorning maqsadi va har bir moliyaviy instrument bo'yicha daromadlilik va risk darajasi, shuningdek, uni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar hajmi aniqlanadi. Mazkur bosqich moliyaviy portfelga kirishi mumkin bo'lgan potensial turdagi moliyaviy aktivlarni aniqlash bilan tugallanadi.

2. Qimmatli qog'ozlarni tahlil etish bosqichida, muayyan davrda bozor kon'yunkturasi asosida ayrim qimmatli qog'ozlar turlarining kurs qiymati va muayyan firma aksiyasining istiqboldagi kurs dinamikasi aniqlanadi. Bunday yondashuv texnik tahlil deb nomlanadi. Olingan ma'lumotlarga asosan fundamental tahlil olib boriladi.

3. Qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish bosqichida investitsiyalash uchun aniq aktivlar tanlash mo'ljallanadi, shuningdek investitsiyalanadigan kapital doirasida aktivlar orasidan oqilona variantlar, jami portfel bo'yicha risklarni diversifikatsiyalash va operatsiyalar vaqti tanlanadi.

4. Qimmatli qog'ozlar portfelini ko'rib chiqish bosqichi investitsiyalash maqsadining o'zgarishi bilan joriy portfel va optimal portfel o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda joriy portfelni davriy baholashni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra ilgari va keyingi sotib olingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya qarorlari qabul qilish mumkin.

5. Qimmatli qog'ozlar portfeli samaradorligini baholash bosqichida haqiqatdagi daromadlar va risklik darajasi davriy baholanadi va ular mavjud standartlar bo'yicha taqqoslanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan investitsiya jarayonlarini amalga oshirishda talab etilayotgan shart-sharoitlar, boshqacha qilib aytganda, investitsiya faoliyati subyektlarini, ya'ni investitsiya jarayoni qatnashchilari va ular orasidagi munosabat predmetlari va shakllarini anglatadi.

Jahon amaliyotiga ko'ra, davlatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasiga asosan investitsiya jarayonlarining bir nechta modellari mavjud.

Bu modellarning har biri ma'lum bir maqsad va sharoitlardan kelib chiqqan holda xarakterlanib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining turli bosqichlari va tashqi iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.

Tanlangan va amalga oshiriladigan investitsiya modeli muayyan bir davrda iqtisodiyotning istiqboldagi rivojini ta'minlashi va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashishi va shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarini hal etishi lozim.

Jumladan, akademik N.V. Igoshin (2001) investitsiya jarayonlarining quyidagi modellarini taklif qiladi:

1. Iqtisodiyotni to'liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasidagi proteksionistik investitsiya jarayonlar modeli;
2. Iqtisodiyotni to'liq erkinlashtirish sharoitida investitsiya jarayonlari va ochiq dunyo bozori modeli;
3. Investitsiyalarni chetdan jalb etish modeli;

4. Investitsiya jarayonlarining rejali-taqsimot modeli;
5. Aralash iqtisodiyot uchun investitsiya jarayonlari modeli.

1. *Iqtisodiyotni to'liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasidagi proteksionistik investitsiya jarayonlari modeli* iqtisodiyotni to'liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasida proteksionistik tartibda olib boriladi. Bunday model yetarli ichki investitsiya resurslariga ega bo'lgan va ayni vaqtda bozor munosabatlarini qonun ustuvorligida tartibga solib borayotgan mamalakatlarda faoliyat ko'rsatadi. Raqobat kurashida omadsiz ishlab chiqaruvchilar va investorlar mag'lubiyatga uchraydi va jamiyatda kattagina moliyaviy mablag'lar o'z qo'lida to'planib qolgan, tor qatlamdagi «g'oliblar» sinfini keltirib chiqaradi. Natijada erkin raqobat monopoliya bilan almashinadi, shuningdek raqobat kurashi monopolistlar o'rtasida ham zo'rvonlikni keltirib chiqaradi va o'zaro kelishishga majbur qiladi hamda tor qatlamdagi «g'oliblar»ning kapitallari tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni yana ham kengaytirish hisobiga to'planib boradi.

Bu esa ba'zi badavlat kishilar qo'lida pul massasining katta qismi to'planishi va natijada aholi katta qismining to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Raqobatbardosh bo'lmagan ishchi kuchining bir qismi ishlab chiqarishdan siqib chiqariladi va ishsizlar armiyasi vujudga keladi. Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini, jumladan yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ustuvor ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash va boshqa sohalarni xususiy sektor eplay olmaydi. Bunday investitsiya loyihalarini davlat talabi bilan davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish hisobiga amalga oshirish mumkin. Bu esa iqtisodiyotni erkinlashtirish emas, balki ishlab chiqarish va bozorni davlat tomonidan tartibga solish hisoblanadi.

Umuman olganda bunday model bilan ikkinchi jahon urushidan keyin bir qator davlatlar o'z iqtisodiyotini bir qadar rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hozirgi kun uchun bu model taklif etilmaydi.

2. *Iqtisodiyotni to'liq erkinlashtirish sharoitida investitsiya jarayonlari va ochiq dunyo bozori modeli* yuqorida ko'rib o'tilgan modelning modifikatsiyalashgan shakli hisoblanadi. Bu model tashqi bozorlar ta'siri davlat himoyasida bo'lmay, sof bozor iqtisodiyoti modeli hisoblanadi. Ushbu modelda investitsiyalar hajmi va yo'nalishi nafaqat milliy bozorda, balki dunyo bozori talab va takliflariga asoslangan holda aniqlanadi. Bu modelni tatbiq qilishda ishlab chiqarishni barpo etishga qaratilgan milliy iqtisodiyot uchun kerak va milliy bozor sharoitida rentabelli hisoblangan investitsiyalar dunyo bozori nuqtayi nazaridan qaraganda norentabelli bo'lsa, bunday investitsiyalar ijobiy tipdagi, jozibador investitsiyalar hisoblanmaydi.

3. *Favqulotdagi vaziyatlarda investitsiyalarni chetdan jalb etish modelini* urushlar, buzilishlar, iqtisodiy inqirozlar sharoitlarida, iqtisodiyot izdan chiqqan holatlarda qo'llash mumkin. Bunday vaziyatlarda davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni, pul va boshqa turdagi resurslarni o'z qo'lida ushlab, investitsiyalar va iqtisodiyotni strategik rejalashtirishni to'liq monopollashtirib oladi. Bu modeldan nisbatan uzoq muddatga foydalanilmaydi, favqulotdagi vaziyatlardan so'ng uning samaradorligi tez yo'qoladi va u boshqa modelga almashtiriladi.

4. *Investitsiya jarayonlarining rejali-taqsimot modeli* xo'jalik yuritishni chetdan jalb etish (mobilazatsiyalash) modelidan kelib chiqqan holda, u asosan moliya-xo'jalik shakllari bilan to'ldirilganligi bilan farq qiladi. Ya'ni, chetdan jalb qilish (mobilazatsion) modelida hattoki, passiv darajada ta'sir ko'rsatsada, pul shaklidagi qiymat ko'rsatkichlar asosiy rol o'ynaydi va ular rejali-taqsimot qarorlarini qabul qilishda birinchi navbatda e'tiborga olinadi. Bunday hollarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari o'z mahsulotlarini bozorlarda faol realizatsiya qila oladigan korxonalarda to'plana boshlaydi. Umuman olganda esa investitsiya jarayonlarining rejali-taqsimot modelida deyarli barcha investitsiya loyihalari davlat tomonidan qabul qilinadi va amalga oshiriladi.

5. *Aralash iqtisodiyot uchun investitsiya jarayonlari modeli* boshqa modellardan farqli ravishda bozor va rejali xo'jalik yuritish mexanizmlarining o'zaro uyg'unlashgan shaklida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda muhim bir xulosani keltirish lozimki, sobiq Ittifoqning tarqalib

ketishidan oldingi 15-20 yillik davrda xo'jalik yuritishning rejali taqsimot mexanizmini bozor mexanizmi bilan to'ldirish choralari ko'rilgan bo'lsada, biroq o'ta markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bu harakatlarni deyarli chippakka chiqardi. Faqatgina sobiq Ittifoq respubliklarining erishgan mustaqilligi bu jarayonni yangidan, bozor mexanizmlarini tadrijiy yo'l bilan joriy qilishga yo'l ochib berdi va ikki tipdagi xo'jalik yuritish mexanizmlarining biri-biri bilan integratsiyalashuvining mumkinligini asoslab berdi. Bunga jumladan dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlaridan hisoblangan AQSH, Germaniya, Yaponiya va boshqa davlatlar tajribasi guvohlik beradi. Rejali-taqsimot mexanizmidan bosqichma-bosqich tadrijiy yo'l bilan bozor mexanizmlarini joriy qilish tajribasi, shuningdek O'zbekiston uchun ham xosligini ta'kidlash o'rinlidir. Va bu strategiya o'zining ijobiy natijalarini berayotganligini mamlakatimiz iqtisodiyotining dinamik ravishda o'sishi ham isbotlamoqda.

Investitsiya jarayonlarining yetuklik darajasi turli mamlakatlarda qabul qilingan va amal qiladigan moliya tizimlariga bevosita bog'liq. Moliya tizimlarining tuzilishi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyot darajasi, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, mavjud me'yoriy-huquqiy baza va boshqa shu kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Ularning bir-biridan farqini quyidagi, ya'ni investitsiyalanuvchi obyektlarning ochiqlik darajasi va to'lov qobiliyatlari, mulkchilik shakli, investitsiya qarorlari qabul qilish ustidan nazorat qilishning ustuvor shakllari va ularni moliyaviy ta'minlash usullari kabi mezonlarga ko'ra aniqlash mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida keltirilgan mavjud faktlarni O'zbekiston sharoitiga taqqoslaydigan bo'lsak quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning ochiqlik siyosatiga amal qilinayotganligi izohlash mumkin. Bank tizimini rivojlantirish iqtisodiyotning mustahkam faoliyat yuritishiga, mamlakatda samarali investitsiya va ishbilarmonlik muhiti shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. Investitsiya jarayonlarini resurslar bilan ta'minlovchi bozor infratuzilmasi institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Biroq, mahalliy tadbirkorlar investitsiya resurslarining tanqisligi tufayli bu mexanizm to'liq ko'zda tutilgan natijalarni bermayapti. Shunga qaramasdan, Fond bozoriga xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha ko'mak va imtiyozlar berilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Tuxliyev B.K., (2023) *Investitsiyalarni moliyalashtirishning dolzarb masalalari: Monographie.* -T, 161 b.

Жданов В.П. (2001) *Инвестиционные механизмы регионального развития.* – Калининград, БИЭФ, 15с.

Иванов Г.И. (2002) *Инвестиции: сущность. Виды, механизмы функционирования /Серия «Учебники, учебные пособия», Ростов н/Д: Феникс, С.80.*

Игошин Н.В. (2001) *Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник для вузов. 2-е изд., перераб. и доп.* –М.: ЮНИТИ-ДАНА, С.91-106.

Киселева Н.В., Боровикова Т.В., Захарова Г.В. и др. (2005) *Инвестиционная деятельность: Учебное пособие / Под ред. Г.П. Подшиваленко и Н.В. Киселевой.* –М.: КНОРУС, С.17.

Қонун (2019) *Инвестициялар ва инвестиция фаолияти” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 2019 йил 25 декабрь.* <http://www.lex.uz> (норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тизими).

Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. (2003) *Инвестиции: Пер. с англ.* – М.: ИНФРА-М, XII, с.10.

<https://stat.uz/uz/>